XALQ DEPUTATLARI OHANGARON TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 29-oktabr VII-15-78-10-134-K/25 Ohangaron tumani

Ohangaron tumanidagi mavjud geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 25-avgustdagi 05-19-14452-sonli va 05-19-14488-sonli yig‘ilish bayonnomalari va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosalarini, shuningdek “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 28-avgustdagi 1/12/4-4854-sonli va 1/12-4-4855-sonli yig‘ilish bayonnomalarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida"gi 303-sonli Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Ohangaron tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi N.Azimovaning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 25-avgustdagi 05-19-14452-sonli va 05-19-14488-son bilan Toshkent viloyati hokimi nomiga kiritgan xatlari va xatlarga ilova qilingan Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil avgustdagi yig‘ilish bayonnomalari va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan tumanda joylashgan 13 ta

ko‘chalar (4 ta ko‘cha, 3 ta berk ko‘cha, 6 ta tor ko‘cha) qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati 1-ilovaga asosan tasdiqlansin;

- 2025-yil 25-avgustdagi yig‘ilishi va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan tumanda joylashgan 1 ta qabriston qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomi ro‘yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin;

3. Tuman hokimining o‘rinbosari I.Qurbonov, tuman O‘zbekiston mahallalar uyushmasi boshlig‘i M.Tashbayevga 1 oy muddatda ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida o‘zgargan ko‘chalarga ularning nomlari yozilgan metall ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalarni bosqichma-bosqich o‘rnatish, almashtirish, tumanda tizimdagi ish yurituv hujjatlarini mazkur qarorga muvofiqlashtirish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda va tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (F.Sherov), tuman bosh imom xatibi 1 oy muddatda tumandagi mavjud qabristonlarni ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomlarini o‘rnatish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha tuman komissiyasiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi, tuman IIB, hokimning qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari S.Shoqosimov, kadastr agentligining tuman bo‘limi boshlig‘i S.Karimov, davlat kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i A.Baratov, tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Mo‘minov, tuman statistika bo‘limi boshlig‘i, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari S.Qo‘chqarov, tuman davlat xizmatlari markazi rahbari G‘.Axmedov va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda o‘zgargan ko‘cha va qabriston nomlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni ko‘chalar o‘zgarishi munosabati bilan mazkur qarorga muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirsin.

5. Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i (A.Baratov)ga quyidagiqaror bandlarida ko‘rsatilgan asoslar inobatga olinishini nazoratga olsin:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabr “Ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1010-sonli qarorining 13-bandida - manzillarni belgilash, o‘zgartirish va mavjudligini bekor qilish ushbu Nizomning 9-12-bandlarida ko‘rsatilgan asoslar bo‘lganda va (yoki) ushbu Nizomning 15-bandida belgilangan hollarda, shuningdek, qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, manzillarni belgilash, o‘zgartirish va mavjudligini bekor qilish uchun to‘lov to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat bo‘lganda amalga oshiriladi.

Quyidagi hollarda manzilni belgilash uchun to‘lov undirilmaydi:

ko‘chmas mulk joylashgan ma’muriy - hududiy birlik o‘zgarganda;

ko‘chmas mulk obyektning bir qismi begonalashtirilganda obyektning qolgan qismiga eski manzili berilganda;

Ko‘chaning nomi o‘zgarishi bilan ushbu Ko‘chada joylashgan barcha ko‘chmas mulklarning manziliga o‘zgartirish kiritilganda;

Nomsiz ko‘chalarga nom berilishi bilan ushbu Ko‘chada joylashgan barcha ko‘chmas mulklarning manzili belgilanganda va manziliga o‘zgartirish kiritilganda;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq aholi punktlarining nomlanishi va chegaralari o‘zgarganda, shu jumladan, bir hududdan boshqa hududga o‘tkazilganda (turar yoki noturar ko‘chmas mulk obyektida rekonstruksiya, qo‘shimcha va alohida qurilish mavjud bo‘lgan hollar bundan mustasno).

6. Mazkur qaror “Ohangaron hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari” bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Xalilov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi RAXMANOVA NAZIRA AKILXANOVNA

Xalq deputatlari Ohangaron tumani
Kengashining
2025-yil 29-oktabrdagi
VII-15-78-10-134-K/25 -son qaroriga
1-ilova

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif va Ekspert komissiyasining xulosasiga muvofiq berilgan nomlar
1.	Ko‘cha	Telov mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Bahodir
2.	Berk ko‘cha	Telov mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Bahodir 3-berk
3.	Tor ko‘cha	Telov mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Bahodir 2-tor
4.	Berk ko‘cha	Telov mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Bahodir 2-berk
5.	Tor ko‘cha	Telov mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Bahodir 1-tor
6.	Berk ko‘cha	Telov mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Bahodir 1-berk
7.	Ko‘cha	Qoraxitoy mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Oqmarvarid
8.	Tor ko‘cha	Qoraxitoy mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Oqmarvarid 1-tor
9.	Tor ko‘cha	Qoraxitoy mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Oqmarvarid 2-tor
10.	Tor ko‘cha	Qoraxitoy mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Oqmarvarid 3-tor
11.	Ko‘cha	Eyvalek mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Nafis
12.	Ko‘cha	Ubayd mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Hojiobod
13.	Tor ko‘cha	Ubayd mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Hojiobod tor

Xalq deputatlari Ohangaron tumani
Kengashining
2025-yil 29-oktabrdagi
VII-15-78-10-134-K/25 -son qaroriga
2-ilova

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif
1	Qabriston	Chuvildoq mahallasi	nomsiz	**‘‘Eski G‘oyibota”**